

QO'QON XONLIGINI TUGATILISHI

<https://doi.org/10.7281/zenodo.19408256>

Xursanbekov Muhammadyusuf Oybek o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi

Yo'ldoshxo'jayev Saidahraxo'ja Toxirxo'ja o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX-asrning ikkinchi yarmida qo'qon xonligida yuz bergan voqealar va Rossiya imperiyasi bilan siyosiy qarama-qarshiliklar to'g'risida ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek ushbu maqolada xonlikning tugatilishi jarayonida xalqning qarshilik harakatlari, mintaqa tarixiy taraqqiyotiga ta'siri ham yoritiladi. Maqola Qo'qon xonligining tugatilishi nafaqat mahalliy siyosiy voqea, balki butun O'rta Osiyoning mustamlaka davri tarixida muhim burilish bo'lganini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar

Qo'qon xonligi, Rossiya imperiyasi, siyosiy inqiroz, Turkiston, Kaufman, Nasriddinxon, urush, general, Marg'ilon, Andijon.

Annotation

This article provides a scholarly analysis of the political events that took place in the Kokand Khanate during the second half of the 19th century and its confrontations with the Russian Empire. It also highlights the resistance movements of the local population during the process of the khanate's abolition and examines their impact on the historical development of the region. The article demonstrates that the dissolution of the Kokand Khanate was not only a local political event, but also a significant turning point in the colonial history of the entire Central Asian region.

Keywords

Kokand Khanate, Russian Empire, political confrontation, colonialism, resistance movements, Central Asian history.

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ событий, происходивших во второй половине XIX века в Кокандском ханстве, а также его политических противоречий с Российской империей. Кроме того, рассматриваются сопротивления местного населения в процессе ликвидации ханства и их

вливание на историческое развитие региона. В статье показано, что упразднение Кокандского ханства было не только местным политическим событием, но и стало важным переломным моментом в колониальной истории всего Среднеазиатского региона.

Ключевые слова

Кокандское ханство, Российская империя, политический кризис, Туркестан, Кауфман, Насриддинхан, война, генерал, Маргилан, Андижан.

KIRISH

XIX- asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida tub burilishlar davri bo'lib, ayniqsa Qo'qon xonligi taqdiri bilan chambarchas bog'liq jarayonlar katta ahamiyat kasb etadi. Bu davrda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kuchayib, mintaqa xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Qo'qon xonligi ichki siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik va ijtimoiy qarama-qarshilik girdobida qolib ketdi. Natijada Rossiya imperiyasi bilan yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar harbiy to'qnashuvlarga olib keldi. Xususan general K.P. Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlarining bosqinchilik yurushlari Qo'qon xonligining mustaqilligiga putur yetkazdi.

Xonlik hukumdori Nasriddinxon davrida yuzaga kelgan inqiroz yanada chuqurlashib, oxir-oqibat Qo'qon xonligining tugatilishi bilan yakunlandi. Bu jarayon davrida Mayg'ilon va Andijon kabi yirik shaharlarda xalq qarshilik harakatlari kuchaydi, ammo ular Rossiya harbiy kuchi oldida mag'libiyatga uchradi. Qo'qon xonligining tugatilishi nafaqat mahalliy tarixiy voqea, balki butun Turkiston o'lkasining keying siyosiy taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatgan muhim burulish niqtasi bo'ldi. Ushbu jarayon Markaziy Osiyo xalqlarining mustamlakchilik davri tarixini chuqur o'rganishda alohida ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Mazkur davrga boid bir qator manba va adabiyotlar mavjud bo'lib, avvalo, ularniikki guruhga: manba va tarixiy adabiyotlarga tasniflash mumkin. Qo'qon xonligini tugatilishi mavzusida Ingiliz, Rus, O'zbek va boshqa tildagi manbalar mavjud bo'lib ulardagi tahlillar bir biriga o'xshash emas, misol uchun Scot C. Levi o'z asarida Qo'qon xonligining tashkil topishidan tortib uning tugashigacha bo'lgan voqea hodisalarning yoritib bergan[1]. Huddi shunga o'xshash malumotlarni Ikromjon Kuzikulov asarida uchratish mumkin. Ushbu manbada asosan Qo'qon xonligini Rus qo'shinlari 1852-yilda Oq masjidga yurush orqali xonlikni zabt etilganidan tortib to bosib olgan jarayonni yoritib berganligini kurishimiz mumkin[2]. X.Bababekov ushbu mavzuga doir asarida xonlikni ruslar

tomonidan bosib olinishining sabablari, uning oqibatlarini haqida yorqin malumotlat keltirgan[3].

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Qo'qon xonligi XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllanib, XIX asr oxirigacha Markaziy Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan davlat hisoblanadi. Uo'zining dinamik siyosiy tizimi iqtisodiy rivojlanishi hamda ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklari bilan tarixda alohida iz qoldirgan. Davlatning shakllanishiga to'xtaladigan bo'lsak Qo'qon xonligining asoschisi Shoxruhbiy Ming bo'lib, u 1709-yilda Farg'ona vodiysida mustaqil hokimiyatni shakllantirgan. Hukumdorlar sulolasi Ming qabilasiga mansub bo'lgani uchun ularga Ming nomi qo'llaniladi. Minglar Shayboniylar davridan keyin siyosiy maydonga chiqqan O'zbek urug'idan biri edi. Biylar sulolasidan bo'lgan Norbo'tabiy shaxsiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Norbo'tabiy hukumdori Shoxruhbiy avlodidan bo'lib, Ming urug'iga mansub. U otasi Erdonabiy vafotidan so'ng hokimiyatni qo'lga olib, 1770-yilda taxtga bchiqadi. Norbotabiy hukumronligi Qo'qon xonligining siyosiy jihatdan mustahkamlanishi davriga to'g'ri keladi. Norbo'tabiy uzoq vaqt davomida Qo'qon xonligini boshqargan. Uning davrida poytaxt Qo'qonga ko'chirildi va xonlik siyosiy markazlashuv jarayonini boshdan kechirdi[1]. Qo'qon xonligini bosib olishga b'lgan daslabki xarakatlarga to'xtakadigan bo'lsak, 1852-yilda Rus qo'shinlari Oq masjidga hujum qilgan, lekin uni qo'lga kiritish olmagan. 1853-yilda general Perovskiy boshchiligida ikki ming kishilik qo'shin Oq masjidga ikkinchi marta hujum qilgan. 22 kunlik qurshovdan so'ng bosqinchilar istehkomni egallaganlar. So'ngra ruslar istehkomni "Perovskiy forti" nomi bilan atay boshlaganlar.

Qo'qonliklar bir necha marotaba Oq masjidni qaytarib olish uchun kurashganlar, lekin bu harakatlar samarasiz yakunlangan. 1854-yilda Olmaota o'rnida Verniy harbiy qal'asining qurulishi turkistonning egallashda hal qiluvchi o'rin tutgan istehkomlaridan bo'lgan. 1860-yilda polkovnik Simmerman qo'shini Qo'qon xonligining 5 ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirib, To'qmoq va Pishpak qal'alarini egallagan. 1861-1863-yillarda chor qo'shinlari Qo'qon xonligiga bir necha marta hujum uyushtirgan. Bu davrda Qo'qon xonligiga qarashli Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Merka va Pishpak ikkinchi marta egallangan. 1863-yil yozida polkovnik Chernyayev Sirdaryo yoqasidagi Suzoq qal'asini qo'lga kiritgan va uni "Rossiya mulki" deb e'lon qilgan[2]. Yuqorida keltirilgan manbada Qo'qon xonligini tugatishga sabab bo'lgan ilk qadamlar haqida so'z borda quyidagi manba'da qo'qon xonligini inqirozi xaqidagi malumotlarni biroz boshqacharo'g'ini tahlil qilib o'tsak. X.N. Bababekov o'zining "Qo'qon tarixi" nomli asarida quyidagicha keltirgan. 1876-yil 16-yanvarda harbiy vazir D.Milyutin Sankt-

Peterburgda dan olayotgan Turkiston okrug qo'shinlari qo'mondoni K.P.Kaufmanga maxfiy xat yo'llab, Qo'qondagi xolat bo'yicha qat'iy chora ko'rish zarurligini bayon qildi. Sizning Yuqori Hurmatliligingizning xabari – Qo'qon xonligining qolgan qismini egallab olish zaruriyati haqidagi fikringiz – Imperatorga yetkazoldi; Viloyat boshlig'ining keltirgan dalillari inobatga olinib, Imperator shunday choralarni qo'llashga ruxsat berdi. Ntijada rus qo'shinlari qo'shib olish operatsiyasini amalga oshirdi va Qo'qon xonligi egallandi. Qo'qon xonligi davlat sifatida tugatildi va uning hududida Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Fatrg'ona oblasti tashkil etildi[3]. Quydagi K.P.Khakimjonova o'z manbasida Qo'qon xonligini Ruslar tomonidan bosib olinishi haqida keltirilgan malumotlar shuni bildiradiki XIX-asr o'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo tomon hududlarni kengaytirish siyosatini xonliklarning mustaqilligiga jiddiy tahdid sola boshladi. Rossiya Imperiyasi, o'z fuqorolari deb hisoblagan Qozoqlarni himoya qilish niqobi ostida, 1847-yilda Orenburg harbiy gubernatori Obruchev Sirdaryo daryosining quyi oqimi yaqinida Rayim qal'asini qurdi. U Qo'qon xonligiga qarashli Oq masjid qal'asini bosib olishni taklif qildi. Aslida, bu qal'a Rossiyani keying harbiy yurushlari uchun tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilishi kerak edi.

1860-yillarning boshlariga kelib, Sirdaryoning o'ng sohilidagi Yangikurgan qishlog'i va Pishpak qal'asi (hozirgi Bishkek shahri) bu yo'nalishlarning chekka nuqtalari sifatida allaqachon Rossiya davlatiga qo'shib olingan edi. Rossiya imperiyasining keying nishoni esa Qoqon xonligining eng yirik shaharlari va savdoi markazlaridan biri- Toshkent bo'ldi. Rus harbiylari Toshkentning strategik jihatdan juda qulay joylashganligini yahshi anglab yetib, uni qo'lga kiritish orqali Qoqon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi keying yurishlar uchun tayanch hudud yaratish mumkin edi[4]. Scot C. Levi The Rise and Fall of Khoqand, 1709-1876 asarida ushbu jarayon haqida shunday tarif yozadi Rossiyaning Qo'qonni bosib olishini tayyor rejaga muofiq imperia yurushi sifatida emas, balki mahalliy sharoitlar va insoniy qarorlar ta'sirida shakillangan murakkab, o'zgaruvchan jarayon sifatida talqin qiladi[5]. 1875-yilda Namangan, Andijon, Marg'ilon, O'sh va boshqa joylarda yirik xalq qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'lonchilar Xudoyorxonni taxtdan tushurishdi va uning o'g'li Nasriddinxonni xon deb e'lon qilishdi. Biroq yangi hukumdor ham Rossiyaga qarshi turishga ojiz edi. Rossiya imperiyasi bu holatni o'z faydasiga ishlatdi va "tartib o'rnatish" bahonasida Qoqon xonligiga qarshi harbiy yurush boshladi. 1875-yilning kuzida Turkiston general-gubernatori Kaufman va general M.D.Skobelev boshchiligidagi rus qo'shinlari Qo'qon tomon yurish boshladi. 1875-yil sentyabr oyida Namangan, Andijon, va Marg'ilon ruslar tomonidan bosib olindi. 1876-yil yanvarida Skobelev qoshinlari Qo'qon shahriga

kirdi. Xon Nsriddin taslim bo'ldi va oilasi bilan Rossiya himoyasiga qabul qilindi. Qo'qon xonligining rasman tugatilishi 1876-yil 19-fevralda (1-martda yangi taqvim bilan) Rossiya imperatori Aleksandr II farmon chiqardi: farmonda Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasining tarkibiga kiritilsin, uning o'rnida Farg'ona viloyati tashkil etilsin. Shu tariqa Qo'qon xonligi Rasman tugatildi. Uning barcha yer va boyliklari Rossiya davlatining mulkiga aylandi[6].

Xulosa

Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi XIX asr oxiridagi Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosatining mantiqiy natijasi bo'ldi. Xonlikdagi ichki siyosiy beqarorlik, hokimiyat uchun kurash, iqtisodiy zaiflik va xalq noroziligi Rossiya aralashuvi uchun qulay sharoit yaratdi. 1875–1876-yillardagi harbiy yurishlar natijasida Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona viloyati tashkil etildi. Bu voqea mintaqada rus mustamlakachiligi hukmronligining to'liq o'rnatilishini anglatdi va O'rta Osiyoda siyosiy mustaqillik davrining yakunini ifodaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Scott C.Levi. The rise and fall af Khokand 1709-1876. University of Pittsburgurh Pres;2017 – P 1-8.
2. Ikromjon Kuzikulov. Qo'qon xonligi tarixi. Namangan; 2014 – P.71-76.
3. X.N. Bobobekov.Qo'qon tarixi. O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent; 2006. P.85-92.
4. K.P. Khakimjonova. The end of the Kokand khanate by the Russian empire and the formation of the Ferghana as represented in sources republic of Uzbekistan – P.14-16.
5. Scott C.Levi. The rise and fall af Khokand 1709-1876. University of Pittsburgurh Pres;2017 – P.208-209.
6. N.A.Maev. Turkestanskiy sbornik 1867-1917. Tashkent; 1971 – P.480-490.